BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

G‘aniyev Doniyor Musurmonovich - Samarqand tumani “Knowledge source” nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi, bu yo‘nalishdagi mavjud pedagogik muammolar, bxorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlari hamda ularni bartaraf etishning samarali usullari tahlil etiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ishlash, kompetensiya, raqamli texnologiyalar, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik muammo, innovatsiya, refleksiya.

Kirish: Hozirgi globallashuv davrida ta’lim sifati va pedagogik jarayonlar samaradorligi ko‘plab mamlakatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sohasida raqobatbardosh va mustaqil fikrlovchi pedagoglarni tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda mustaqil ta’lim asosiy vosita o‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishiga bevosita ta’sir etadi. Kompetensiya - bu bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning integratsiyalashgan majmuidir. Mustaqil ishlash kompetensiyasi pedagogning kasbiy rivoji uchun hal qiluvchi omildir. Bu kompetensiya motivatsiya, refleksiya, vaqtni boshqarish va muammoni hal qilish kabi komponentlardan tashkil topgan.


Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli vositalardan foydalanish qobiliyati ularning mustaqil ta’limdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois, Google Classroom, Padlet, Moodle kabi platformalarni o‘rgatish bo‘yicha maxsus modul va loyiha ishlari joriy etilishi zarur.

“Mustaqil ishlash – bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi”. Mustaqil ta’lim zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida talabalarning bilim olishdagi faolligini oshirish, mas’uliyat hissini kuchaytirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabaning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishi, muammoli vaziyatlarni yechishdagi mustaqilligi, ijodiy loyihalarda ishtirok etishi uning kasbiy shakllanishida asosiy omil hisoblanadi[4].

“Mustaqil ishlash – bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi”. Mustaqil ta’lim zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida talabalarning bilim olishdagi faolligini oshirish, mas’uliyat hissini kuchaytirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabaning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishi, muammoli vaziyatlarni

yechishdagi mustaqilligi, ijodiy loyihalarda ishtirok etishi uning kasbiy shakllanishida asosiy omil hisoblanadi[8].

Mustaqil ta’lim – pedagogning kasbiy ishlab chiqarishini orttirish shakllaridan biri hisoblanadi.Vigotskiy nazariyasida shaxs – faol subyekt sifatida qaraladi. Shaxs faoliyatining mazmuni va natijasi uning tashqi sharoitlar bilan o‘zaro munosabatiga bog‘liq. Mustaqil ta’limda pedagog aynan ana shu faoliyat markaziga chiqadi: u o‘z ta’limiy ehtiyojlarini anglaydi, ularni rejalashtiradi va amaliyotda tatbiq etadi. Bu yondashuvda uchta asosiy ta’limiy komponent ajralib chiqadi[5];



1-rasm. Mustaqil ta’limda pedagogning ta’limiy komponentlari.

Ularni tanlash va undan foydalanish usuli pedagogning o‘z ixtiyorida bo‘ladi. Inson o‘zining eng yuqori rivojlanish darajasiga faqat faoliyatda erishadi. Mustaqil o‘rganish esa kasbiy refleksiya, o‘z faoliyatini baholash, yangi yondashuvlarni izlash, o‘zgaruvchan ta’lim sharoitlariga moslashish orqali amalga oshadi.

L.S.Vigotskiyning nazariy qarashlari mustaqil ta’limni shaxsiy va kasbiy o‘sishning muhim vositasi sifatida asoslab beradi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, pedagog o‘zining faol subyekti sifatida ta’lim jarayonida nafaqat bilimni uzatadi, balki doimiy ravishda o‘zini yangilab, rivojlantirib boradi. Shunday ekan, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash va bu borada tizimli sharoitlar yaratish zamonaviy pedagogik siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi shart. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z ustida ishlashga doimiy ehtiyoj sezmaydi. O‘z faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarish, yangilikni qidirish – past darajada. O‘qituvchining mustaqil ishlash kompetensiyasining shakllanishi uchun motivatsiya yetakchi omil hisoblanadi. Aks holda bilimlar faqat passiv egallangan faktlar darajasida qoladi[6].

Mustaqil ishlash kompetensiyasining tuzilmasi, shakllanish bosqichlari tizimli ishlab chiqilmaganligi sababli pedagogik ta’lim dasturlariga mustaqil ishlash kompetensiyasini shakllantirishga oid maxsus modullar kiritish hamda o‘quv

jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil qilish lozim, va “Kompetensiyalar mazmuni tizimlashtirilgan yondashuv asosida o‘rgatilishi zarur”[3].

Xulosa va tavsiyalar: Ushbu mavzuda o‘z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud. Bolajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllanganlik darajasini belgilaydigan mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Bu mezonlar o‘quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak. Pedagog tomonidan tashkil qilinadigan dars ham tarkibiy jihatdan mukammal dars bo‘lishi kerak. Buning uchun uning strukturasi va ekspertiza qilish mezonlari ishlab chiqilishi kerak. Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish bilan birgalikda ta’lim muassasasida ilmiy-metodik, axborot bazasini shakllantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash, ishlab turgan pedagoglarimizda yangicha fikrlashni shakllantirish kerak. O‘qituvchilarni ta’limdagi kompetensiyaviy yondoshuv bilan tanishtirish; Tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlaydigan texnologiyalarni egallash, o‘qituvchilarni kompetensiyalarga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tuza olish va darsda hamda darsdan tashqari faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatish; O‘qituvchilarni berilgan topishiriqlarni o‘quvchilar tomonidan qanday bajarilganligini analiz qilish va baholashga o‘rgatish. Monitoring o‘tkaza olish. O‘z pedagogik faoliyatiga korreksiyalar kirita olish bugungi ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ishlash kompetensiyasini baholovchi mezonlar ishlab chiqish; Raqamli texnologiyalar asosida interaktiv dars dizaynini o‘rgatish; Refleksiya kundaliklari va portfolio metodikasini joriy etish; Kasbiy-amaliy faoliyatni kuchaytirish uchun real vaziyatli mashg‘ulotlar tashkil etish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bu esa, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va individual rivojlanishga asoslangan metodikalar bilan chambarchas bog‘liq. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar asosida ta’lim tizimini takomillashtirish - raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashning eng muhim kafolatidir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. 2022–2030 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. 2020-yil 5-oktabr. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
3. Xutorskoy A.V. Kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. Moskva, 2003.
4. Usmonxo‘jayev M.T. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda innovatsion yondashuv. Ilmiy maqola, 2021.
5. Zeyer E.F. Pedagogik refleksiya: mazmuni va ahamiyati. Moskva, 2019.
6. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. Toshkent, 2014.
7. Qodirova M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent, 2020.
8. Boltaboyev S.A. O‘qituvchi tayyorlashda mustaqil ishlashning o‘rni. Toshkent, 2021.